



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19626174>

Yusuf Xos Hojib ijodidagi axloqiy qarashlar

Mexmonaliyev Shodibek Navfal o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti,

“Pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: mexmonaliyevshodibek93@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0414-3730>

Abdufattoyeva Adibaxon Zafarjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqola Sharqning ulug' adiblaridan biri Yusuf Xos Hojibning ijodidagi axloqiy qarashlar masalalariga bag'ishlangan. Adibning “Qutadg'u bilig” dostonidagi axloq masalalar va ma'naviyatga doir qarashlar tahlil qilinadi. Bunda kishi ega bo'lishi lozim bo'lgan axloqiy fazilatlar alohida e'tibor qaratilgan. Yusuf Xos Hojibning asarlaridagi axloqiy qarashlar, til, so'z odobi, yaxshilik va yomonlik haqidagi mulohazalar zamonaviy pedagogika talablari asosida o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:** Yusuf Xos Hojib, “Qutadg'u bilig” asari, axloqiy tarbiya, yaxshilik va yomonlik, qadryatlar, so'z odobi, axloqiy fazilatlar.*

Нравственно-этические взгляды в творчестве Юсуфа Хос Хожиб

***Аннотация.** В данной статье исследуется нравственное воспитание в произведениях одного из великих писателей Востока, Юсуфа Хоса Хаджиба. Этическая поэма автора «Кутадгу Билиг» анализирует моральные вопросы и взгляды на духовность. Особое внимание уделяется моральным качествам, которыми должен обладать человек. Нравственные взгляды, язык, правила этикета и размышления о добре и зле в произведениях Юсуфа Хоса Хаджиба изучаются с точки зрения требований современной педагогики.*

***Ключевые слова:** Юсуф Хос Хаджиб, «Кутадгу Билиг», нравственное воспитание, добро и зло, ценности, этикет, моральные качества.*

Moral and ethical views in the works of Yusuf Khos Khojib

Annotation. *This article examines moral education in the works of one of the great Eastern writers, Yusuf Khos Hajib. The author's epic poem "Kutadgu Bilig" analyzes moral issues and views on spirituality. Particular attention is paid to the moral qualities that a person should possess. Moral views, language, rules of etiquette, and reflections on good and evil in Yusuf Khos Hajib's works are examined from the perspective of modern pedagogy.*

Keywords: *Yusuf Khos Hajib, "Kutadgu Bilig", moral education, good and evil, values, etiquette, moral qualities.*

KIRISH

Hozirgi davr pedagogik tizimida axloqiy tarbiya masalalarining o'рни tobora ortib bormoqda. Shunga monand ravishda tarbiya tizimini takomillashtirishda yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Bu o'rinda Sharq mutafakkirlarining pedagogika sohasidagi qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshband va Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlari ham pedagogika tarixida o'chmas iz qoldirgan pedagogik qarashlarga egadirlar. Ular orasida Yusuf Xos Hojibning fikr-mulohazalari pedagogikada alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning axloqiy qarashlari zamonaviy tarbiyaning yangi usullarini shakllantirishda tavsiyaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ushbu maqola Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlariga asoslangan tarbiya tizimini shakllantirish usullariga bag'ishlanadi hamda adibning Sharq madaniyati va pedagogik ta'limi tarixidagi axloqiy qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada Yusuf Xos Hojibning qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan. Uning asarlarida mavjud bo'lgan ta'lim nazariyasi va ta'lim mohiyati haqidagi mulohazalar zamonaviy pedagogika talablariga mosligi jihatidan o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlariga bag'ishlangan adabiyotlar anchagina bo'lib, maqola uchun adibning "Qutadg'u bilig" asari, B.To'xliyev, M.Ishoqov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, B.Husanov kabi tadqiqotchilarning izlanishlari manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yosh tadqiqotchilardan M.Xushnutova, M.Rasulova, M.Ahmedova, Ch.Saidova va boshqalarning ilmiy ishlarida Sharq mutafakkirlarining pedagogika sohasidagi qarashlarini tadqiq qilinadi. Ularda Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, qarashlarning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati, tarbiyaviy faoliyatdagi o'рни masalalari o'rganilgan.

Yusuf Xos Hojib ijodidagi axloqiy qarashlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish asoslariga ko'ra, zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi tarbiya yo'nalishidagi muammo va qiyinchiliklarni hal qilish orqali zamonaviy barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu maqsadlarga erishishda pedagogika tarixiga alohida e'tibor qaratish zarur. Bugungi kun ta'lim oluvchilarini muammolarning yechimlarni tahlil qilish, kreativ yondashuvlar asosida to'g'ri qarorlar chiqarish va optimal natijani topishni uddalaydigan faol ijodkorlarga aylantirish zarurati ham bor. Bu ta'lim oluvchilarning kognitiv va ijodiy faolligi, shuningdek, tarbiya muhitida samaradorlikka erishish talab etiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Yusuf Xos Hojibning pedagogik va metodologik ahamiyatga ega "Qutadg'u bilig" asarini tahlil qilish;
- Yusuf Xos Hojib asarlarida axloqiy tushunchalari talqinini mantiqiy tahlil qilish;
- olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha pedagogik tajribani umumlashtirish;

– Yusuf Xos Hojibning qarashlariga asoslangan tarbiya tizimini asoslarining analitik tavsifi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari adibning yagona asari sifatida ko’riladi. Asarning ma’nosi – saodatga eltuvchi bilim shaklida tarjima qilinadi. S.Berdaliyeva Yusuf Xos Hojibni o’z davrining zarur va foydali bilimlarini mukammal bilganligini e’tirof etib, uning mazkur asarini “...turkiy xalqlar islomni qabul qilganlaridan so’ng yaratilgan ilk adabiy asar” [1] deb tilga oladi. S.Berdaliyevaning mazkur fikri ba’zi tadqiqotchilar tomonidan boshqacharoq talqin qilinadi. Agar Q.Karimov “Yusuf Xos Hojibning asari turkiy tilda yaratilgan dastlabki asardir” [2], deb talqin qilgan bo’lsa, A.Muxamedov bu fikrga qo’shila olmasligini bayon qilgan. Tadqiqotchining fikricha, “Qutadg’u bilig” asarigacha ham turkiy tilda yozilgan asarlar mavjud bo’lgan. Bu asarlar o’zaro ichki urushlar, tashqi dushmanlarning istilosi, radikal qarashlarning avj olishi tufayli ko’plab madaniy yodgorliklar yo’q bo’lib ketgan. Shuning uchun, A.A. Muxamedov Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarini turkiy tilda yozilgan birinchi asar, deyish o’rniga, bizgacha saqlanib qilgan turkiy tildagi eng yirik yozma manbaa deb hisoblash to’g’riroqdir [3], deb hisoblaydi. A.Muxamedov o’z tadqiqotlarida fikrining isboti sifatida ko’plab dalillar keltiradi.

G.Xoldorova Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» asari haqida fikr yuritar ekan, uning Qoraxoniylar davlatidagi xalqning muayyan mafkuraviy-axloqiy dasturga katta ehtiyoji zarurati uchun yaratilganligini tilga oladi. Darhaqiqat, adib ushbu vazifani bajarishni o’z maqsadi qilib ilgan. “Qutadg’u bilig” asarining mazmun-mohiyatida markazlashgan davlatni boshqarish, turli mansabdorlar orasida jupslikka erishish, davlat boshqaruvida adolatli siyosat yurgizish, ma’naviyat, hayot kechirish bilan bog’liq qarashlar badiiy shaklda va qomusiy dastur darajasida ilgari surilgan [4]. Shuning uchun u Qoraxoniylar davrining mafkuraviy, ma’naviy-axloqiy ta’limoti shaklida alohida o’ringa ega. M.Xushnutova Yusuf Xos Hojib haqida fikr yuritar ekan, u turkiy adabiyotda aruz vaznida yirik asar yozish an’anasini boshlab berganligini, “Qutadg’u bilig” muta’qorib bahrida yozilib, adib unda tajnisli qofiyadan foydalanganligini ta’kidlaydi [5]. N.Abdullayeva “Qutadg’u bilig” asaridagi til va so’z odobi masalalari haqida tadqiqotlar olib borib, olima J.T.Amrebaeva Yusuf Xos Hojib falsafasidagi rasional va amaliy jihatlar hamda Markaziy Osiyo mutafakkirlariga ta’siri, A.K.Axmetovanning “Qutadg’u bilig” asaridagi qadriyatlar masalalari yuzasidan ma’rifiy-pedagogik ahamiyatga molik ishlarni e’tirof etgan [6].

Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarida inson axloqiy kamolotga yetishining yo’llari, usullari haqida badiiy tilda o’z qarashlarini bayon etadi. Bunday qarashlar va g’oyalari oddiy xalqdan tortib, yurt boshlig’igacha bo’lgan hammaga zarurligini, shu yo’l bilan halq farovonligiga erishish mumkinligini ifodalaydi. Adibning asari aynan shuning uchun hozirgacha ham o’zining badiiy, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatini yo’qotgan emas.

Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy-falsafiy merosini o’rganish tarixiy va madaniy meros bilan birga, Markaziy Osiyo va Qozog’iston davlatlaridagi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur anglab yetishga imkon beradi [7]. Adibning ijodidagi ilg’or g’oyalarni yosh avlod ruhiyatiga singdirib borish, bu orqali ulardagi kreativ tafakkurni rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol inson qilib tarbiyalash hozirgi kunimizning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojib o’zining “Qutadg’u bilig” asari Eligning tilning foydasi va zarari haqidagi savoliga Oyto’ldi tomonidan berilgan javobga e’tibor beramiz:

Ilmiing belgisi ikki narsa erur,

Shu bilan inson yuzi yorug’ bo’lur.

Biri – til, biri – tomoq, nafs – balodir,

Ularni tiya olsang nafi daryodir.

*Ilmi tomoq, tilin asrashi kerak,
Nafsi, tilin tiygan olimdir demak*[8].

Yusuf Xos Hojib ushbu jumlar vositasida til va nafsi tiyish orqali inson turli muammolardan xoliroq bo'lish mumkinligiga ishora qiladi. Binobarin, axloqli kishi har doim so'zlashi kerak bo'lgan fikri avval o'ylab, so'ngra uni bayon qilishi odobning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Insonning nafsi masalasida ham aytilgan fikrlar o'z ma'nosiga egadir. Adibning tilga hushyor bo'lish kerakligi haqida bildirgan fikrlari ham ahamiytli bo'lib, "Boshim omon bo'lsin desang, tilingni ehtiyot qil, tiling istagan bir kunda boshingni yeydi", deya nasihat qilinadi. Yusuf Xos Hojibning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari ham e'tiborlidir. Adibning fikricha, yaxshilar onadan tug'ulgach, to'g'ri va rost yo'ldan yuradi va odamlarga mudom yaxshilik qiladi. Yomonlar esa ikki turli bo'ladi, ularning birinchisi tug'ma yomon bo'lib, u o'lgunigacha odamlarga ozor berish bilan shug'ullanadi. Yomonlarning yana biri esa o'tkinchi bo'lib, uning yaqinlari yaxshi bo'lsa, u ham to'g'ri yo'lga kiradi. Agar yaxshi insonning yomondan jo'ralari bo'lsa, yaxshi kishining qiliqlari ham yomon sherigi singari yomonlashib boraveradi [9].

Umuman olganda, "Qutadg'u bilig" asari maqollar va iboralar bilan boyitilgan bo'lib, o'z davridagi ma'naviy-axloqiy qarashlarning mohiyati haqida ma'lumot beradi. So'nggi yillardagi ilmiy-adabiy yo'nalishlardagi izlanishlar Yusuf Xos Hojib ijodini yanada chuqurroq tadqiq qilishga undaydi.

XULOSA

Adibning yuqoridagi misollarda tahlil qilingan g'oyalaridan ko'rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib ijodida axloq masalasi muhim o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojib ijodida axloq masalasi uning "Qutadg'u bilig" asarida o'z aksini topgan. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda axloqning ustuvorligi jamiyat farovonligiga olib keladi. "Qutadg'u bilig" asarida bayon etilgan falsafiy g'oyalar tadqiqotchilarni o'tmish madaniy merosiga nisbatan qiziqishni oshirish bilan birga, keng jamoatchilikni axloq, yaxshilik va yomonlik, so'z odobi, mulqot ilmi haqidagi tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berdaliyeva S. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi axloqiy-falsafiy g'oyalar / "Taraqqiyot tadqiqotlari" ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plami. 2024, № 24-dekabr, - B. 50.
2. Karimov Q. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig". – T: Yangi nashr, 1971. – 965 b.
3. Muxamedov A. A. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari. Manba: [FIqdraOk6Pp9tXVeiqkLdELx9LykbtZ.pdf](#)
4. Xoldorova G. "Qutadg'u bilig" va "Hayrat ul-abror" dostonlarida didaktik qarashlar uyg'unligi // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(6), June, 2023. – B. 426.
5. Xushnutova M. "Qutadg'u bilig" asari va unda yetuk insonni kamolga yetkazish masalasi. // "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2025, 18-mart. – B. 108.
6. Abdullayeva N. "Qutadg'u bilig" asarida til va so'z odobi masalalari // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 2022, Volume 2, Issue 11, november. – P. 171.
7. Miraxmatova M.L. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar: Qozog'iston va Markaziy Osiyo yoshlarining avlodlararo talqini / The importance of Yusuf Khas Hajib's philosophical legacy in forming the foundations of the third Renaissance // *ALFRAGANUS UNIVERSITY (E) ISSN: 2181-1784 5(22), May, 2025*. – B. 871.

8. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga eltuvchi bilim). – T: Fan, 1971. – B. 201.

9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. 12-19 boblar. Emin Usmon tarjimasi. Manba: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-12-19-boblar.html>